

Boshlang‘ich sinflarda she'riy matnlar ustida ishlash

**N.O.Safarova,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori.
M.M.Shodiyeva,
Buxoro davlat pedagogika institute 3-kurs talabasi.**

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda she'riy matnlar ustida ishlash — bolalarning til, adabiyot va estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan didaktik jarayondir. She’rlar bolalar qalbini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish, hissiy va aqliy rivojlanishiga yordam beradi. She'riy matnlar, shuningdek, o‘quvchilarga ritm, ohang, tilning go‘zalligi va ma'nosini his qilishda yordam beradigan vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: She’r, ohang, boshlang‘ich sinflar, she'riy matnlar ahamiyati, tahlil qilish.

She’r - ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir.

1. She'riy matnlarning ahamiyati Boshlang‘ich sinflarda she'riy matnlarni o‘rganish, avvalo, bolalarning o‘zlariga xos dunyoqarashini shakllantiradi. She’rlar bolalarga nafaqat tilning tuzilmasini o‘rgatadi, balki ularning his-tuyg‘ularini ifoda etishiga, xayoloti va tasavvurlari rivojlanishiga yordam beradi. She'riy matnlar orqali o‘quvchilar quvnoq va kulgili hikoyalarni, go‘zal tasvirlarni, tabiatni, insonni, vatanni va sevgi mavzularini o‘rganadilar. She'riy matnlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi, lug‘atni boyitadi, yangi so‘zlar va iboralar bilan tanishtiradi. Shuningdek, she'riy asarlar o‘quvchilarning bayon qilish, tasvirlash, kuzatish va tahlil qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. She’rlar bolalarni o‘z fikrini aniq, lo‘nda va mazmunli ifoda eta olishga o‘rgatadi.

2. She'riy matnlar ustida ishlashning metodikasi

Boshlang‘ich sinflarda she'riy matnlar ustida ishlashda bir nechta metodik yondashuvlar qo‘llaniladi:

a) She'rni tinglash va tushunish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun she'rni tinglash va tushunish juda muhim. O‘qituvchi avval she'rni o‘quvchilarga baland ovozda o‘qib beradi, keyin esa matnni

tushunish bo'yicha savollar berishi mumkin. Bu bolalarga she'rning ma'nosini tushunishga, undagi obrazlarni va tasvirlarni his qilishga yordam beradi. b) She'rni o'qish va takrorlash

She'rni takroran o'qish, unga qo'shimcha ravishda, o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etishga yordam beradi. Bu usul orqali bolalar o'zlari uchun yangi so'zlar va iboralarni o'rganadilar. She'riy matnni yodlash bolalar xotirasini rivojlantiradi, tilni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

c) She'rni tahlil qilish. She'rni tahlil qilish orqali o'quvchilar uning tuzilishi, ritmi, she'riy elementlari va obrazlarini o'rganadilar. O'qituvchi she'rni qismlarga ajratib, har bir bo'limning ma'nosini izohlaydi. Bu metod o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va kuzatish qobiliyatini shakllantiradi.

d) Yaratgan tasvirlar va obrazlar haqida suhbatlashish. She'nda tasvirlangan manzara, holatlar yoki qahramonlar haqida o'quvchilarga suhbat o'tkazish, ular bilan fikr almashish orqali bolalarning estetik sezgisi rivojlanadi. Ular she'rdagi tasvirlarning qanday qilib biror hissiy holatni yoki tushunchani ifodalashini tushunishga harakat qiladilar.

e) Yaratish va ijod qilish. She'riy matnlar ustida ishlashda o'quvchilarga o'z she'rlarini yozishga imkon berish ham muhimdir. Bu ular uchun ijodiy imkoniyat yaratadi va o'z fikrlarini ifodalashda erkinlik beradi. O'quvchilar tomonidan yozilgan she'rlar ularning tasavvurlari, his-tuyg'ulari va fikrlari asosida shakllanadi, bu esa ularning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

3. She'rlar orqali qadriyatlarni o'rgatish. She'riy matnlar bolalarga nafaqat tilni, balki jamiyatdagi muhim qadriyatlarni ham o'rgatadi. O'quvchilar she'rlar orqali insoniy his-tuyg'ular, do'stlik, vatanparvarlik, sevgi, tabiatga bo'lgan hurmat kabi qadriyatlarni o'rganadilar. She'riy matnlar, ayniqsa, bolalar qalbida jamoa ruhini, tenglikni va adolatni targ'ib qiladi.

She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir m e'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi. She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqe-a-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya'ni she'riy asarlar va lirik she'rlar o'qitiladi. She'riy hikoya, she'riy ertaklarda sujet, ya'ni voqealar tizim i va uning rivoji xarakteriidir. Lirik she'r „biror hayotiy voqe-a-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan

ruhiy kechinm a, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'ming xususiyati „kishining his- tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo‘1 keladi". She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin. Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r m a'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi. She'riy ohangni his qilmaslik, matndagi so'zlam ing m a'nosini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. M a'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan „O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi" misolida ko'rish mumkin. M a'lumki, madhiya kichik yoshdag'i bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi „hur o'lka“, „to abad“, „ilm-u fan“, „shuhrating“, „ajdodlar“, „mardona ruhi senga yor“, „o'chmas iymoni“, „istiqlol m ash'ali“, „tinchlik posboni“, „haqsevar ona yurt“, „mangu bo'l obod“, Jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning „Qish to'zg'itar momiq par" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarn i o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi. M a'lumki, qish fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynashdan olam -olam zavq oladilar. Qishdag'i so f va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi. „Qish to'zg'itar momiq par" (Qudrat Hikmat) she'rini o'rganish jarayonida agar qor yog'magan bo'lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, „kumush" sifati qo'shib aytildi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo'lib tovlanishiga, ko'zlarni

qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilam ing qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o'ziga xos belgilari, qishda o'ynaladigan o'yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilaming qish faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkam izni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'diriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi. Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'lim ning asosiy shakli sh e'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun sh e'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. S h e'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy m azm unini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ogra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak. O'quvchilar sh e'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida xattaxtaga m a'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, „Qish to'zg'itar momiq par" she'ri o'rganilganda „to'zg'itar", „momiq par", „oq namat", „nazdimda", „zarra" so'zları izohlanadi. Shundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berilishi mumkin: „She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?", „Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?", „She'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?", „Shoir qorga qanday murojaat qiladi?". O'qituvchi berilgan javoblami to'dirib, o'quvchilaming qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi. She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Am m o, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar she'ming asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zam onam iz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlami o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqeа haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi. Boshlang'ich

sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

3-sinf 2-qism o'qish savodxonligi kitobida keltirilgan Po'lat Mo'minning "Qish qori bilan" she'ri ham bevosita tabiat hodisalari bilan bog'liq hisoblanadi. She'rda shoir judayam chiroyli o'xshatishlardan foydalangan. Masalan: kengliklarni "oq ko'klam"ga, yerga tushgan qorni xuddi oppoq choyshab yoyilganga o'xshatgan. She'rda shoir qishki o'yinlar: qorbo'ron, chana, chang'I uchish haqida haqida ham aytilgan.

Ey, yoqimtoy qish,
Qoringga olqish.
Sog'intirgan qor,
Keltirgay bahor.

3-sinf o'qish savodxonligi darsligida "Yo'l harakati", "Mehnat qurollari nima deydi?", "Soat", "Qish tashbehlari", "Qish qori bilan", "Xush kelibsani, Yangi yil" kabi she'rlar keltirilgan.

She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar. Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to'xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo'lishi shart emasligi, ritmik to'xtam da ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo'lingan qismlar navbatini bilan yodlatiladi. Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergen yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalaming ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir m'e'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlam ing qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishslash metodikasidan foydalaniladi. Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergen davr haqida tasawur hosil qilinadi. Bunday she'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalardan bo'lgan rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishslashda uni qismlarga bo'lish,



har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi. Epik she’rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mavjud bo’ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o’quvchilar tom onidan ham tuzilishi mumkin. Bunday she’rlarni tahlil qilish asar voqealarini hamda qahramon holatlarini o’quvchi ko’z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin. Epik she’rlarning badiiy til vositalari m a’nolarini ochish, ohangdosh so’zlarni aniqlash, band va misralar, bo’g’inlar sonini belgilash, ifodali o’qish, ayrim epizodlam i yod oldirish kabi ish turlari qo’llansa, maqsadga muvofiq bo’ladi. S he’rni izohli o’qish darsining tuzilishi quyidagicha bo’lishi mumkin:

- 1) sh e’r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o‘qib berish (birinchi sintez);
- 2) she’rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she’rni ifodali o’qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she’rni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) epik (voqeiy) she’rlar ustida ishlash;
- 6) she’rdagi notanish so’zlar ustida ishlash.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinflarda she’riy matnlar ustida ishlash, nafaqat til va adabiyot bilimlarini rivojlantirish, balki bolalarning ijodiy va estetik tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. She’riy matnlar o’quvchilarga dunyoqarashini kengaytiradi, his-tuyg‘ularini ifoda etishga yordam beradi va ularda mustahkam axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi. Shunday qilib, she’rlar orqali o‘qituvchi nafaqat bilim, balki bolalarning qalbini ham tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova “ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent “Nosir” nashriyoti 2009-yil 351 bet.
2. 3-sinf 2-qism O’qish savodxonligi . “Novda” nashriyoti
3. 4-sinf o’qish darsligi 2012-yil
4. Safarova N. O’zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiat, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005
5. Safarova N.O. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi. "O’ZBEKİSTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH İSTİQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.